

BOLA TARBIYASIDA KITOBNING O'RNI

Aytbayeva Gulandam Tanirbergenovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani 24-o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Matyakupova Nilufar Madamin qizi

Ajiniyoz nomidagi davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika yo'nalishining 2-bosqich talabasi

Annatsiya: Maqolada kitobning inson hayotida ahamiyati, yo'lini yorituvchi mash'ala ekanligi, kirol o'qish qoidalari, ta'lim muassasalarida qo'llanish uchun maqollar, topishmoqlar, she'rlar, kitob haqida buyuk shaxslar fikrlari, kitob haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy saviya, aql qal'a, kitobxonlik, hikmatlar xazinasi, bebaho ma'naviy mulk.

*Har ko'ngilning orzusi shul erur obi hayot,
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob...
Har murodning boshidur, har muddaoning gavhari,
Har marazlarning shifosi, ya'ni luqmondur kitob....*

„Odamlarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish, ma'naviy saviyasini yuksaltirish vositasi-bu kitob. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q“

Sh.Mirziyoyev

Kitob inson tononidan yaratilgan mo'jiza. Kitob orqali o'tmish va kelajakka sayohat qilasan, zamondoshing bilan hamqadam bo'lasan. Adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, „Farzandlaringizning qo'lga kitob tutqazing. Kitob ularga hayotni, turmushning qiyinchiliklariga dosh berishni o'rgatadi“ deb vasiyat qilgan edi.

Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofqlikdan xoli hamrohdur. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malolik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib

yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham: "Kitob aql qal'asidir", deganlar Muhammad Jabalrudiy.

Kitob bizga dunyo sirlarini, ajoyibotlarini ochib beradi, yangi bilimlar egallashga yordam beradi.

Buyuk hakim va faylasuf Ibn Sino yozadi: Arastuning "Metafizika" (tabiatdan tashqaridagi hodisalar haqidagi fan) asarini to'yod bo'lguncha qayta-qayta o'qidim. Lekin baribir hech narsani tushunmadim. Tushunarsiz narsa ekan, degan xulosaga kelib tashlab qo'ydim. Bir kuni muqovasozlar bozoridan o'tayotib, bir savdogarning o'z kitoblarini maqtayotganini eshitib qoldim. Do'konga yaqin bordim. Savdogar menga kitoblardan birini ko'rsatdi. Bu Abu Nasr Farobiyning "Metafizikaning asosiy qoidalari" deb nomlangan asari edi. Men biroz tajang bo'lib, tushunarsiz ilmdan hech qanday foyda yo'qligini aytib, kitobni rad etdim. Sotuvchi esa qo'yarda -qo'ymay kitobni arzon bahoda sotib olishga undardi. Axiyri kitobni bor-yo'g'i uch dirhamga sotib oldim. Uyga qaytib, kitobni mutolaa qilishga kirishdim: u menga o'z sirlarini ochdi va men falsafaga oid barcha savollarimga javob topdim.

Donishmand Abu Bakr al-Xorazmiy og'ir betob edi. Shogirdlari undan so'radilar:

- Ko'nglingiz nimani xohlaydi, ishtahangiz nimani tusamoqda?
- Kitobning yuziga bir qaragam, -dedi u.

Mana, ko'rdingizmi, yaxshi kitob dastlab qiyin, tushunarsiz bo'lib tuyulgan ilm yoki voqealarni anglab yetishga hammamizga ko'maklashadi, yangi bilimlarni egallashda yordam beradi va bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Ota-bobolarimizning namunali amallari biz uchun qadrli.

Bolaning kitob o'qish odob-qoidalari

1. Kitobni tanlay olish va zarurini o'qish.
2. Kitobni mustaqil o'qishni bilish.
3. O'qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish.
4. Uning kerakli joylarini yon daftariga ko'chirib, uni esda saqlash.
5. Kitobni yaroqsiz holga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalanishni bilish.
6. Kitobni shoshmasdan o'ylab, diqqat – e'tibor bilan o'qish malakalariga ega bo'lish.

7. Qayta-qayta o'qish – kitobxonlik ko'nikmasini orttirish.



Bolalarga kitob haqida she'rlar

Kitobni ochganimda.

Men kitobni ochaman, Kitob aqlimni ochar.	O'rgatdilar donolar, Qanday ishlash, yashashga.
Men kitobni ochaman G`aflat tun kabi qochar.	Mard va jasur bobolar Chorlar baxtga, kurashga.

Men kitobni ochaman Kitob ochar dunyoni.	Yurtim o`tmishing ko`rib, Angladim men oqibat,
Men kitobni ochaman Kitob sochar ziyoni	Haqiqat qancha ulug`, Tinchlik qancha qimmat.

Kitob qaidamudragan Tuyg`ularni qo'zg`atar.	Kitob-menga qudrat, kuch, Yo'lchi yulduz yo`limda.
Tong chog' i onamday, Orzularni uyg'otar.	Dushmanlarga kelsan duch, Kitob-miltiq qo`limda,

Ekanman g'or va nodon, Kitob ochdi ko`zimni.	Men kitobni ochaman, Kitob –aqlimni ochar...
Ekanman g'irt notavon, Angladim men o`zimni.	

Kitob ochdi ko'zimni
Tanidim insonlarni.
Tanidim yaxshilarni
Tanidim yomonlarni

Rauf Tolib.

Kitob ochdi ko'zimni,
Ko'p ekan nuqsonlarim.
Kitob ochdi ko'zimni
Ko'p ekan imkonlarim.

Kitobim



Barcha bilim sizdadir,
Sen-tafakkur oshyoni.
Aql –idrok mash`alisan,
Ma'rifatning qo`rg`oni.

Har kun o'qiyman seni,
Ardoqlayman asrayman.
Bilimim boyitishga.
Bor kuchimni sarflayman.

Odob –axloq sirlarin,
O'rganaman betinim.
Sening bilan mazmunli ,
O'tayotir har kunim.

Sen- hayotim hamrohim
O'rtog`imsan har boim.
E'zozlayman hamisha,
Qadrdonim kitobim.



Kitobimni o'qiganimda

Navoiydan so'zlaydi kitob,
Olis moziy o'ziga chorlar,
Hayrat ,hayajon entiktirar,
Kitobimni o`qiganimda.

Osmonlarni bo'ylagayman men,
Vazmin, puxta o`ylagayman men.
Baland-baland so`zlagayman men,
Kitobimni o`qiganimda.

Jahon kezdi „Xamsa'' dovrug',
Unda jamdir shoirning mehri.
Shunday yozalsam qani...
Kitobimni o`qiganimda.



Kitobjonim

Betlaringni varaqlab,
Orom olaman har on.
Kitobjonim sen bilan,
Kunim o`tar bearmon.

Olam-olam quvonchdir,
Sehring menga,kitobjon.
Hech tengi yo'q ishonchdir,
Mehring menga ,kitobjon.

Sen-la do`stlashganimdan,
So'slaringda bor ma'no.
Sen sababli maktabda
O`qiyman doim a`lo !

Kitobim, jon kitobim

Nur, ziyoga kon o'zing,
Do'st-u qarddon o'zing
Ma'no to'la har so'zing

Kitobim, jon kitobim.

Zavq-shvqqa to'lar dilim,
Olaman sendan bilim,
Bulbulday sayrar tilim,
Kitobim jon kitobim.

Qo'limdan hech qo'ymayman,
O'qib-o'qib to'ymayman,
Kelajakka bo'ylayman,
Kitobim, jon kitobim!

Dilshod Rajab

Donishmandlar kitob haqida...

“Kitob-barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir”.

“Amir Temur o'g'itlari”

Hamma narsa oiladan boshlanadi. Kitobxonlik ham. (M. Azizov)

Kitob bir bog'. Yozuvlar uning gullaridir (Qayum Nasiriy)

Kitob insondan hech narsani tilamaydi. U odob-axloqning koni, bilimning ulog'idir

(„Otalar so'zi”)

Kitobi bor uyning oftobi bor. Bunday uyning ostonasidan jaholat hatlamaydi.

(Qo'chqor Norqobil)

– insoniyatning eng bebaho ma'naviy mulki, mislsiz xazinası.

(D. Matkarimova)

Dunyoda mo'jizalar ko'p, ammo bilasizmi, shularning ichida insonning ko'ngliga urmaydigan, unga xiyonat qilmaydigan, uni aldamaydigan mo'jiza, bu kitobdir.

(A. Ulug'ov)

“Odamlar o'qishdan to'xtashi bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar”, (D. Didro)

„Farzandlaringizning qo'liga kitob tutqazing. Kitob ularga hayotni, turmushning qiyinchiliklariga dosh berishni o'rgatadi “ (O. Sharafidinov)

“Kitob aql qal'asidir”, deganlar. (Muhammad Jabalrudiy)

„O‘zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman‘‘.

„Kitob o‘qish-eng yaxshi ta‘lim olishdir‘‘.

„Kutubxonalar – insoniyat barcha ruhiy boyliklarining durdonasi‘‘.

„Kutubxonaga kirgan odam, hikmatlar xazinasini topgan bo‘ladi “

Maqollar bola aqlini charxlaydi

Kitob bilm bulog‘i, O‘quvchining o‘rtog‘i.

Kiyim ustingni bezaydi, kitob- aqlingni.

Oltin yerdan olinar, bilim –kitobdan.

Kitob- ko‘zgu, undan olamni ko‘rasan.

Ogohlikni ko‘rdan o‘rgan, donolikni –kitobdan

Topishmoqlar bolani topqirlikka undaydi

Juda sevamiz uni,

U barchaning ulfati,

Xilma-xildir mazmuni.

Bo‘lar ba‘zan surati,

O‘qituvchi emas-ku,

Qani,o‘rtoq,buni top!

Bilim bera olar u.

Eslagan der: bu.....

Gapirmay o‘qitadi.

„Qanday muallim ,jim berar ta‘lim?’

Tili yo‘gu , qilar hikoya,

Hamma narsa haqida so‘zlab,

Hamma joygaborar oyoqsiz

Dono qilar zehningni toblab.

Qat-qat qatlama

Aqling bo‘lsa tashlama.

Tinmay o‘qisang agar,

Kop narsani o‘rgatar,

Bilsang ,do‘stim, o‘ylab top,

Bilim koni u nima?

Ongimizga nur sochar,

Sirlar eshigin ochar.

Ilmga kon,

Mazmunga makon,

So‘zi serhikmat,

Bizga do‘st-ulfat,

O‘rgatar odob,

Bu nima,o‘rtoq?

Kitob o‘qishning hikmati

Ko‘plab kitob o‘qish, o‘qiganda ham tushunib o‘qishda hikmat katta.

Kitob

o'qishning foydasi haqida ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning hayotidan olingan ushbu parcha diqqatga sazovor.

Aytishlaricha, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxonasi bo'lgan, ammo unga kirish uchun hammaga ham ruxsat etilmagan ekan. Bir tasodif tufayli Abu Ali ibn Sino o'sha kutubxonaga kirish va kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo'ladi...

Kunlardan bir kuni amir kasal bo'lib qoladi. Saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Buxoro tabiblari orasida endigina nom chiqarib kelayotgan Abu Ali ibn Sino haqida gapirib qolishadi. Amir

uni saroyga chaqirishlarini buyuradi. Ibn Sino amirni davolaydi. Bundan xursand bo'lgan amir uni saroy tabiblariga boshliq qilib tayinlaydi va «Tila tilagingni!» deydi. Ibn Sino amirdan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berishini so'raydi. Amir ruxsat beradi. Shunday qilib, mashhur olim amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Kitoblar fazilati haqida

Qadimgi arab shoirlaridan biri aytadi: «Gaplari malol kelmaydigan borimizda

ham, yo'g'imizda ham ishonchli, sadoqatli suhbatdoshlarimiz bor.

O'tgan zamon voqealaridan bilganlarini bizga yetkazadilar. Maslahat, odob

va mustahkam iroda ifoda etadilar. Ularda qo'rqinchli kasallik, xavfli holat yo'q, barmoqlar bilan ham, mushtumlari bilan hambizni qo'rqitmaydilar. Ularni tirik desam, yolg'onchi bo'lmayman, jonsiz desam aqlsiz hisoblanaman. Jahonda ulardan yaxshiroq do'st yo'q. Kishi yolg'iz qolsa, ular zeriktirmaydi. Ularda orom boru, ozor yo'q».

Bu qiziq. Hammasi kitob haqida

1. Dunyodagi ilk kitob

Dunyodagi ilk kitoblar ikki ming yil oldin haydo bo'lgan. Ular daraxt va sham eritmasidan tayyorlangan. Ammo Priss qo'lyozmasi deb nomlangan qadimiy kitob besh yarim yil oldin papyrus yordamida yozilgan ekan.

2. Dunyo bo'yicha jami qancha kitob mavjud?

Dunyo bo'yicha jami 130 millionta kitob mavjud. Bu kitoblarning donasi emas, asarlar miqdori asosida hisob-kitob qilingan.

3. Eng sirli kitob

Eng sirli kitob sifatida Volnich qo'lyozmasi e'tirof etiladi. Bu kitobda qaysidir o'simlik haqida so'z boradi. Biroq kitob insoniyat tarixida mavjud bo'lmagan tilda yozilgani bois olimlar hali hanuz uni o'qiy olishmayapti.

4. Eng qimmat kitob

Dunyodagi eng qimmat kitob “Lester majmuasi” deb nomlanib, Leonardo da Vinchi qalamiga mansub. Kitob kimoshdi savdosida Bill Geytsga 24 million dollarga sotilgan. Ajablanarlisi, ushbu kitobni ko'zgu yordamisiz o'qib bo'lmaydi.

5.,,Ming bir kecha” kitobi

”Ming bir kecha” ertagini deyarli barchamiz o'qib chiqqanmiz. Ammo bir narsani bilmaymiz. Kitobning dastlab chop etilgan variantida Olloviddin arab emas, Xitoyi sifatida tasvirlangan.

6.Xitoyda taqiqlangan kitob

L.Kerollning “Alisa mo'jizali mamklakati” kitobi sotuvi Xitoyda qa'tiyan taqiqlab qo'yilgan. Bunga hayvonlarning ham inson tilida gapirishi sabab qilib ko'rsatilgan.

7.Xorvard kutubxonasida saqlanadigan 4 dona kitob

Xorvard kutubxonasida to'rt dona kitob saqlanadi.Aytishlaricha, bu kitoblar odam terisidan tayyorlangan ekan.

8.,,Robinzon Kruzo” asarining davomi bor...

”Robinzon Kruzo” asarining davomi ham bor. Unda xuddi o'sha birinchi asardagi birinchi qahramon ikkinchi marotyaba kema halokati tufayli kimsasiz orolga tushib qoladi va ming turli mushkulotlarga duch kelgan quruqlikdan uyiga yetib oladi. Quruqlik esa Rossiya hududi hisoblanadi.

9.Dunyoda qancha kitob chop etilgan...

Dunyoda kitob chop etish texnologiyasi paydo bo'lganidan beri, jami 2 milliardga yaqin kitob nashr etilgan.

10.Ilk roman

Ilk roman sifatida bir ming yilcha oldin Yaponiyada bitilgan “Gendzi qissasi” tan olingan.

11.Eng sermahsul ijodkor

Eng sermahsul ijodkor deb yozuvchi Barbara Kartlendni aytsa bo'ladi. U oyiga ikkitadan roman yozib, dunyo ahlini allaqachon hayratga solib ulgurgan.

12.Nima uchun kitob o'qishni to'xtatishadi.

Ko'pchilik kitobsevarlar o'zi mutolaa qilayotgan kitobning 18-sahifasiga yetgach, qiziqishi so'nib, o'qishni to'xtatishadi.

13.Loydan tayyorlangan kitob

Qadimiy Assiriyada kitob oddiy loydan tayyorlangan.

14. Kitob o'g'risi kim?

Kitob og'risini dunyo miqyosida bibliotoman deb ataladi.

15.Dunyodagi eng og'ir vaznli kitob

Vellingtonda dunyodagi eng og'ir vaznli kitob saqlanadi. Bu kitobning so'f vazni

50 kilogrammga teng.

16.2-aprel-Xalqaro bolalar kitobi kuni.

17. Miloddan avvalgi 1300-yillarda xitoyliklar o'z kitoblarini bambuk o'simligidan tayyorlagan.

18.Xalqaro mualliflik huquqini himoya qilish qonuni ilk bor 1828- yili Daniyada qabul qilingan.

19.Hindiston va Seylonda „kitob“ sifatida palma barglaridan foydalanilgan.

20.Misr fravnlariidan biri Ptalomey 2 (mel. av.308-246) dunyoga mashhur Aleksandriya kutubxonasini qurdirgan.

21.Xitoy Faylasufi Kanfutsiyning kutubxonasida atirgullar haqida 600 tom kitob bor bo'lgan.

22. 1966-1971-yillarda Xitoyda har bir fuqora o'zi bilan mitti qizil kitobcha „Rais Maonning Naqlnoma“'sini olib yurishi shart bo'lgan.Kitobning adadi 800 milliondan oshib ketgan.

Boyligim, borim kitob, tandagi jonim kitob.

Vasiyatim,vasiyatim! Kim ham eshircay,

Mulkim yo`qki, birovlarga meros qoldirsam.

Xazinam yo`q birovini boyitib qo`ysam,

Merosimdir kitoblarim va jadvallarim.

Bir meroski, zamon uni mavh etilmaydi,

Bir meroski, vorislari bu vatan ahli ,

Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi. (M. Shayxzoda „Mirzo Ulug`bek‘‘)

Ota-bobolar qoldirgan meros butun dunyoni lol qoldirgan kitoblari barhayot.

Zero,ular qoldirgan kitoblar har qanday bilimning joni va yuragi,har qanday fanning ibtidosidir.

Har bir ota-ona farzandiga kichik paytidan birinchi sovg'asi kitob bo'lsa,o'zlari kitob mutolaasi bilan shug'ullanib ularga o'rnak bo'lsa, farzandlarning ong-u tafakkuri,dunyoqarashini boyitgan, ma'naviy saviyasini yuksaltirgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.„Ma'rifat“ gazetası.2020.3-iyul.№18,„Siz kitobni qanday o'qiysiz“.

- 2.,,Til va adabiyot ta'limi'' jurnali , 2017-YIL6-SON
,,Kitob ilmlar,hissiyotlar,aqllarning nurnomasidir'', Ibrohim G'afurov.
- 3.,,Yosh kuch'' jurnali,2015.May
,,Kitobxonlik-ma'naviy yuksalish mezoni'',G'ulom Mirzo.
4. ,,Yosh kuch'' jurnali,2015.May
,,Endi mening kitobim bor''.Adolat G'ayrat qizi.
- 5.O'zbek tili .Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik «DAVR NASHRIYOTI»
Toshkent – 2017
6. M. Shayxzoda. ,,Mirzo Ulug`bek''Toshkent,,O`QITUVCHI-1994